O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DM

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-01, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Inoyatov Mirabbos Mirkomilovich

2026 - yil 20 - avgustdagi 293629 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: Termiz shahar Tuproqqo‘rg‘on mahallasida 16 qavatli, 1-qavati savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish nuqtalari bo‘lgan turar-joy binosini qurish (Blok – A, B, V).

Buyurtmachi: XAMIDIY XK

Bosh loyihachi: "ARCH DESIGN SERVICE" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Moliyalashtirish manbai: Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan

Bosh pudratchi: Buyurtmachi tomonidan aniqlanadi.

Qurilish turi: Yangi qurilish

Murojaat raqami: 122508

1. Loyihalash uchun asos.

1. Termiz shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bo`limi tomonidan 2025-yil 19-sentabrda berilgan 216998927-sonli ruxsatnomasi.
2. Surxondaryo viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi boshqarmasining 2025-yil 24-sentabrdagi 1722-1722401-240943-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig`i.
3. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun buyurtmachi va bosh loyiha tashkiloti o`rtasida 2025-yil 5-iyulda tuzilgan 26-sonli shartnomasi.
4. 2026-yilda Bosh loyiha tashkiloti bilan kelishilib, Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirg`i.
5. “BAKTRIYA ZAMINI” MChJ tomonidan 2026-yilda ishlab chiqilgan muhandislik-geologik sharoitlari haqidagi texnik hisoboti.
7. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Surxondaryo hududiy filialing 2026-yil 23-fevraldagi 22401174314-sonli hamda 2026-yil 17-iyundagi 22401244851-sonli texnik shartlari.
8. “Surxondaryo suv ta`minoti” AJning 2025-yil 21-oktabrdagi 102-sonli texnik shartlari.
9. “Gold Malika Print” MChJning 2026-yil 19-avgustdagi 26-sonli xati.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko‘ra “ishchi loyiha” ning elektron yo‘nalishda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonining o‘ziga xos xususiyatlari.

Normativ shamol bosimi - 0,38 kPa.
Normativ qor qatlami vazni - 0,50 kPa.
Qurilish hududining zilzilabardoshligi - 7 ball.
Tuproqning muzlash qatlami - 0,70 m.

Cho'kish xususiyatlari bo'yicha grunt toifasi - II (ikkinchi).
Seysmik xususiyatlari bo'yicha grunt toifasi - II (ikkinchi).
3.2. Bosh reja.
Rekonstruksiya qilinishi rejalashtirilayotgan turar joy binosi Surxondaryo viloyati, Termiz shahar Tuproqqo‘rg‘on mahallasida hududida joylashgan.
Bosh rejaga asosan hududda quyidagilar loyihalashtirilgan:
- 3 ta 16 qavatli tura joy binosi;
- bolalar maydonchasi;
- avtoturargoh;
- yer osti avtoturargohiga tushish qismi;
- yong'in gidranti;
- chiqindilarni yig'ish joyi;
- turar joy binolari (mavjud);
Shuningdek, bosh rejada obodonlashtirish, ko`kalamzorlash ishlari ko`zda tutilgan.
Hududning texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlari.
Umumiy yermaydoni - 2938,4 m2
Qurish maydoni - 1419,8 m2
Yo`llar yo`laklar qoplamalari maydoni - 775,1 m2
Ko`kalamzorlashtirish maydoni - 743,5 m2
3.3. Arxitekturaviy yechimlar.
A blok.
Turar joy binosi 16 qavatli, yerto`lali, to`g`ri to`rtburchak shaklda bo`lib, o`lchamlari 1-7/A-Г o`qlari bo`yicha 31,30x16,40 metr.
Yerto’la balandligi-4,1 metr, 1-qavat 3,50 metr, 2-16-qavatlar 2,90 metrni tashkil etadi. (poldan shiftgacha).
Yerto`la qismida avtoturargoh, nasos xonasi, tambur hamda yordamchi xona loyihalangan.
1-qavatda savdo do`koni hamda sanitariya-gigiyenik xonalar loyihalangan.
2-16 qavatlarda kvartiralar loyihalangan.
Kvratiralarning umumiy soni 90 ta.
Texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlar.
Qurilish maydoni - 629,00 m2
Umumiy maydoni - 6825,12 m2
Umumiy xajmi - 27095,96 m3
B blok.
Turar joy binosi 16 qavatli, yerto`lali, “Г” shaklda bo`lib, o`lchamlari 1-6/A-Ё o`qlari bo`yicha 22,20x22,40 metr.
Yerto’la balandligi-4,1 metr, 1-qavat 3,50 metr, 2-16-qavatlar 2,90 metrni tashkil etadi. (poldan shiftgacha).
Yerto`la qismida avtoturargoh hamda loyihalangan.
1-qavatda savdo do`koni hamda sanitariya-gigiyenik xonalar loyihalangan.
2-16 qavatlarda kvartiralar loyihalangan.
Kvratiralarning umumiy soni 75 ta.
Texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlar.
Qurilish maydoni - 586,84 m2
Umumiy maydoni - 5961,60 m2
Umumiy xajmi - 24841,10 m3
V blok.
Turar joy binosi 16 qavatli, yerto`lali, to`g`ri to`rtburchak shaklda bo`lib, o`lchamlari 1-7/A-Г o`qlari bo`yicha 31,30x14,20 metr.
Yerto’la balandligi 4,1 metr, 1-qavat 3,50 metr, 2-16-qavatlar 2,90 metrni tashkil etadi. (poldan shiftgacha).
Yerto`la qismida texnik xona, nasos xonasi, tambur hamda yordamchi xona loyihalangan.
1-16 qavatlarda kvartiralar loyihalangan.

Kvratiralarning umumiy soni 96 ta.
Texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlar.
Qurilish maydoni - 489,28 m2
Umumiy maydoni - 6510,85 m2
Umumiy xajmi - 26798,09 m3
Ichki pardozlash ishlari.
Devorlar - suvash, tekislash, sopol plitka, moy bo`yoq hamda suvli emulsiyali bo`yoq.
Pol qismi - beton qoplama, marmar, laminat, sopol plitka.
Shif qismi - suvash, tekislash, suvli emulsiyali bo`yoq.
Tashqi pardozlash ishlari.
Devrolar- travertin ko‘rinishidagi dekorativ pardozlash qatlami.
Sokol qismi-granit plitka.
3.4. Konstruktiv yechimlar.
A-blok.
Binoning konstruktiv sxemasi-monolit temirbeton karkasli, bog‘lovchi bikrlik diafragmalaridan iborat.
Poydevor osti asosini qalinligi 6,0 m bo‘lgan GPSdan tashkil topgan sun’iy grunt tashkil etadi.
Poydevor-qalinligi 1600 mm bo‘lgan monolit temirbeton plita, beton sinfi B25. Sulfatga chidamli sement asosida bajarilgan. Vertikal va gorizontal gidroizolyatsiya-rulonli «Izol» materiali, ikki qatlamda.
Tayyorlov qatlami-qalinligi 100 mm bo‘lgan B7,5 sinfli beton.
Yerto‘la devorlari-qalinligi 400 mm bo‘lgan monolit temirbeton, beton sinfi B30.
Yerto‘la devorlarining issiqlik izolyatsiyasi-zichligi γ=45 kg/m^3, qalinligi 50 mm bo‘lgan ekstrudirovka qilingan penopolistirol.
Ustunlar - yerto‘lada 2-qavatgacha-600x600 mm, 3-qavatdan 5-qavatgacha-500x500 mm, 6-qavatdan 8-qavatgacha-450x450 mm, 9-qavat va undan yuqori-400x400 mm. Beton sinfi B30.
Rigellar-kesimi 400x400 mm bo‘lgan monolit temirbeton, beton sinfi B30.
Diafragmalar-monolit temirbeton, qalinligi: yerto‘ladan 3-qavatgacha-500 mm, 4-qavatdan 6-qavatgacha-400 mm, 7-qavatdan 9-qavatgacha-300 mm, qolgan qavatlarda-250 mm. Beton sinfi B30.
Qavatlararo yopmalar-qalinligi 180 mm bo‘lgan monolit temirbeton plitalar. Beton sinfi B30.
Zinalar-monolit temirbeton, beton sinfi B20.
To‘siq devorlar-qalinligi 100–250 mm bo‘lgan D600 gazobloklardan terilgan.
Tashqi devorlar-qalinligi 200 mm bo‘lgan D600 gazoblok devorlar, issiqlik izolyatsiyasi bilan. Issiqlik izolyatsiyasi materiali-zichligi γ=120–125 kg/m^3, qalinligi 60 mm bo‘lgan mineral paxta.
Lift shaxtasi-qalinligi 200 mm bo‘lgan monolit temirbeton, beton sinfi B20.
Tom-yopma plitasi ustida yassi tom, qoplamasi-«Plastfoil» PVX membrana.
Tom issiqlik izolyatsiyasi-penopolistirol «Penopleks».
Bino zinapoyasimon chekinishlar va balandlik bo‘yicha chiqib turuvchi qismlarga ega emas. Vertikal elementlar-uzluksiz.
B blok.
Poydevor osti asosini qalinligi 6,0 m bo‘lgan GPSdan tashkil topgan sun’iy grunt tashkil etadi.
Poydevor-qalinligi 1600 mm bo‘lgan monolit temirbeton plita, beton sinfi B25. Sulfatga chidamli sement asosida bajarilgan. Vertikal va gorizontal gidroizolyatsiya-rulonli «Izol» materiali, ikki qatlamda.
Tayyorlov qatlami-qalinligi 100 mm bo‘lgan B7,5 sinfli beton.
Yerto‘la devorlari-qalinligi 400 mm bo‘lgan monolit temirbeton, beton sinfi B30.

Yerto‘la devorlarining issiqlik izolyatsiyasi-zichligi γ=45 kg/m³, qalinligi 50 mm bo‘lgan ekstrudirovka qilingan penopolistirol.
Ustunlar-monolit temirbeton, kesimi - yerto‘ladan 2-qavatgacha-500x500 mm,
3-qavatdan 5-qavatgacha-450x450 mm, 6-qavat va undan yuqori-400x400 mm. Beton sinfi B30.
Rigellar-kesimi 400x400 mm bo‘lgan monolit temirbeton, beton sinfi B30.
Diafragmalar-monolit temirbeton, qalinligi: yerto‘ladan 2-qavatgacha-400 mm, 3-qavatdan 5-qavatgacha-300 mm, 7-qavat va undan yuqori-250 mm. Beton sinfi B30.
Qavatlararo yopmalar-qalinligi 180 mm bo‘lgan monolit temirbeton plitalar. Beton sinfi B30.
Zinalar-monolit temirbeton, beton sinfi B20.
To‘siq devorlar-qalinligi 100–250 mm bo‘lgan D600 gazobloklardan terilgan.
Tashqi devorlar-qalinligi 200 mm bo‘lgan D600 gazoblok devorlar, issiqlik izolyatsiyasi bilan.
Issiqlik izolyatsiyasi materiali-zichligi γ=120–125 kg/m³, qalinligi 60 mm bo‘lgan mineral paxta.
Lift shaxtasi-qalinligi 200 mm bo‘lgan monolit temirbeton, beton sinfi B20.
Tom-yopma plitasi ustida yassi tom, qoplamasi-«Plastfoil» PVX membrana.
Tom issiqlik izolyatsiyasi-penopolistirol «Penopleks».
Bino 1–4 o‘qlar oralig‘ida 6 m chekinishga ega, balandlik bo‘yicha chiqib turuvchi qismlarga ega emas.
Vertikal elementlar-uzluksiz.
V blok.
Asosni qalinligi 6,0 m bo‘lgan G‘PSdan tashkil topgan sun’iy grunt tashkil etadi.
Poydevor-qalinligi 1600 mm bo‘lgan monolit temirbeton plita, beton sinfi B25. Sulfatga chidamli sement asosida bajarilgan.
Vertikal va gorizontal gidroizolyatsiya-rulonli «Izol» materiali, ikki qatlamda.
Tayyorlov qatlami-qalinligi 100 mm bo‘lgan B7,5 sinfli beton.
Yerto‘la devorlari-qalinligi 400 mm bo‘lgan monolit temirbeton, beton sinfi B30.
Yerto‘la devorlarining issiqlik izolyatsiyasi-zichligi γ=45 kg/m³, qalinligi 50 mm bo‘lgan ekstrudirovka qilingan penopolistirol.
Ustunlar-monolit temirbeton, kesimi: yerto‘ladan 2-qavatgacha-600x600 mm, 3-qavatdan 5-qavatgacha-500x500 mm, 6-qavatdan 8-qavatgacha-450x450 mm, 9-qavat va undan yuqori-400x400 mm. Beton sinfi B30.
Rigellar-kesimi 400x400 mm bo‘lgan monolit temirbeton, beton sinfi B30.
Diafragmalar-monolit temirbeton, qalinligi: yerto‘ladan 3-qavatgacha-500 mm, 4-qavatdan 6-qavatgacha-400 mm, 7-qavatdan 9-qavatgacha-300 mm, qolgan qavatlarda-250 mm. Beton sinfi B30.
Qavatlararo yopmalar-qalinligi 180 mm bo‘lgan monolit temirbeton plitalar. Beton sinfi B30.
Zinalar-monolit temirbeton, beton sinfi B20.
To‘siq devorlar-qalinligi 100–250 mm bo‘lgan D600 gazobloklardan terilgan.
Tashqi devorlar-qalinligi 200 mm bo‘lgan D600 gazoblok devorlar, issiqlik izolyatsiyasi bilan.
Issiqlik izolyatsiyasi materiali-zichligi γ=120–125 kg/m³, qalinligi 60 mm bo‘lgan mineral paxta.
Lift shaxtasi-qalinligi 200 mm bo‘lgan monolit temirbeton, beton sinfi B20.
Tom-yopma plitasi ustida yassi tom, qoplamasi-«Plastfoil» PVX membrana.
Tom issiqlik izolyatsiyasi-penopolistirol «Penopleks».
Bino zinapoyasimon chekinishlar va chiqib turuvchi qismlarga ega emas. Vertikal elementlar-uzluksiz.
Yer osti avtoturargohi.

Bir qavatli yer osti avtoturargohi, rejadagi o‘lchamlari-32,1x39,2 metr, qavat balandligi-3,90 metr.
Poydevor-qalinligi 500 mm bo‘lgan monolit temirbeton plita, beton sinfi B25. Sulfatga chidamli sement asosida bajarilgan.
Vertikal va gorizontal gidroizolyatsiya-rulonli «Izol» materiali, ikki qatlamda.
Tayyorlov qatlami-qalinligi 100 mm bo‘lgan B7,5 sinfli beton.
Ustunlar-monolit temirbeton, kesimi 500x500 mm, beton sinfi B25.
Rigellar-monolit temirbeton, kesimi 400x500(h) mm, beton sinfi B25.
Qavatlararo yopmalar-qalinligi 200 mm bo‘lgan monolit temirbeton plitalar. Beton sinfi B30.
Devorlar-qalinligi 400 mm bo‘lgan monolit temirbeton, beton sinfi B25.
Tom-yopma plitasi ustida yassi tom.
3.5. Yong‘in xavfsizligi.
onstruksiyalarning chegaraviy holatiga ko‘ra, binoning olovbardoshlik darajasi – II;
-konstruktiv yong‘in xavfi bo‘yicha sinfi – C0;
-funksional yong‘in xavfibo‘yicha sinfi – F 1.3 (yashash qavatlari), F3.1 (savdo zali), F5 (yer osti avtoturargoh).
Yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida quyidagilar ko‘zda tutilgan:
-Binolar orasidagi yong‘inga qarshi oraliq masofa, ularga atrofidagi harakatlanish yo‘llari me’yorlar talablarida;
- evakuatsiya chiqishlarning soni norma talablarida;
- binoning tashqi (issiqlik izolyatsiyasi mineraltolali bazalt plitalari, ustki qatlami travertinga o‘xshash dekorativ pardoz qatlami) va ichki devorlari yonmaydigan materiallar bilan ishlov berilishi;
-yerto‘la qavatidan chiqish yo‘li bevosita tashqariga;
-yerto‘la qavatda oyna xandaklar (okna priyamki);
-yuqori qavatlardan evakuatsiya tutunlanmaydigan N1 tur (A va V-blok) va N3 tur (Bblok) zina kataklar orqali;
-yer osti avtoturargohdan umumiy zina katak orqali chiqilganda, 1-qavat darajasida yong‘inga qarshi devor bilan ajratilishi;
- tomga chiqish ichki zina katagi orqali, tomdagi balandlik farqlarida vertikal narvonzinapoyalar;
- evakuatsiya yo‘llaridagi eshiklarning ochilishi chiqish yo‘nalishiga qaratilgan, o‘z-o‘zidan yopiladigan moslama (dovodchik) bilan jihozlangan va
me’yoriy olovbardoshlik darajasida; yuqori qavatlarda har bir xonadonda tashqi ochiq balkon (lodjiya)lar, ularda avriyaviy lyuklar orqali qavatlarni bog‘lovchi vertikal metall zinalar;
-savdo qavatlar yashash qavatlariga chiqadigan umumiy zina kataklardan yong‘inga qarshi devorlar bilan ajratilgan; liftlardan biri GOST R 53296ga muvofiq yong‘in-qutqaruv bo‘linmalarini tashish rejimi bilan;
-har bir qavatda 2 x 2,5 l/s suv sarfiga ega yong‘in o‘chirish kranlari joylashtirilgan ichki yong‘inga qarshi suv ta’minoti; tik quvurlari yuqori qavatida xalqalangan;
-shkaflarda nasosni masofadan ishga tushirish uchun “pusk” tugmasi;
-har bir kvartirada diametri 20 mm bo‘lgan yong‘inni o‘chirish uchun rezina shlangli xonadon ichidagi kranlar;
- yerto‘la qavatda alohida xonada suv bosimini ko‘tarish maqsadida yong‘inga qarshi nasoslar (2ta, Qx=50,0 m^3/ch, H=50,0 m, Ne=14,6 kVt), undan chiqish bevosita tashqariga;
- avariyaviy suvlarni chiqarish uchun chuqurcha va nasos;
- yong‘in o‘chirish texnikasini ulash uchun binodan tashqari (fasad)da tashqaridan boshqariladigan zadvijkali va teskari klapanli D-80 mm quruq quvurlar;
-har bir yer usti qavatlarda tutunga qarshi shamollatish (tutun tortish) tizimi;
- lift shaxtalarining tepa qismidan alohida kanal orqali toza havo berish tizimi;

- noturar va turar qavatlardagi har bir xonasida avtomatik yong‘in signalizatsiyasi;
- yong‘in vaqtida ovozli xabar berish tizimi;
- evakuatsiya chiqish joylarda “Chiqish” yozuvli yonuvchan elektron tablo; tashqi yong‘inni o‘chirish maqsadi uchun maydon ichida tarmoqda yong‘in gidranti (3 dona);
- yer osti avtoturargoh bo‘yicha: avtoturargohning maydoni 3 000 m2 dan katta bo‘lmagan yong‘inga qarshi otsekda;
- bitta ikki yo‘lli rampa orqali kirib-chiqish;
- qavatning perimetri bo‘ylab avtomobillar uchun g‘ildirak qaytargich (kolesootboynik);
- qavatdan to‘g‘ridan to‘g‘ri tashqariga chiqish, yuqori qavatlarni bog‘laydigan umumiy zina kataklar 1chi qavat darajasida yong‘inga qarshi to‘siq bilan ajratilishi;
- me’yoriy suv sarfiga ega ichki yong‘in o‘chirish kranlari;
- shkaflarda nasosni masofadan ishga tushirish uchun “pusk” tugmasi;
- avtoturargohdan chiqish joyida birlamchi himoya vositalari jamlamasi bilan to‘ldirilgan xona;
- avtoturargohda sprinklerli avtomatik yong‘in o‘chirish tizimi;
- avtoturargohda sprinklerli avtomatik yong‘in o‘chirish tizimi ishlatilganda so‘ng, suvni o‘z oqimi bilan yig‘ish va majburiy qochirishni nazarda tutuvchi kanal; suv bosimimni ko‘tarib berish uchun yong‘inga qarshi nasos stansiyasi (1 ta asosiy, 1 ta zaxira:
Q=150 kub.m/chas, N=58 m, N=37 kVt), undan bevosita tashqariga chiqish;
- ichki yong‘in o‘chirish suv ta’minotida kerakli suv bosimini hosil qilib berish uchun zaxira suv rezervuarlari (V=40 kub.m);
- yong‘in o‘chirish texnikasini ulash uchun binodan tashqari (fasad)da tashqaridan boshqariladigan zadvijkali va teskari klapanli D80 mm quruq quvurlar;
- tutunga qarshi shamollatish (tutun tortish va toza havo berish) tizimi;
- avtoturargohdan zina katakka va lift shaxtasiga tashqi havo bosimi beriladigan 1-tur tambur orqali kirish; avtoturargohda gaz-havo muhitini nazorat qilish tizimi:
- (1) portlash xavfi bor gaz-bug‘-havo muhiti (YeAS, PK) paydo bo‘lishini
payqab qoladigan gazoanalizatorlar hamda (2) SO, CO2 paydo bo‘lishini xavfli konsentratsiyalarni payqab qoladigan gazoanalizatorlar;
avtomatik yong‘in signalizatsiyasi;
- yong‘in vaqtida ovozli xabar berish tizimi;
- evakuatsiya chiqish joylarda “Chiqish” yozuvli yonuvchan elektron tablo ko`zda tutilgan.

3.6. Energiya samaradorligi.

Energiya samaradorlikni ta’minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:
-tom qismi, tashqi devoralarda-issiqlik izoltasion materiallardan foydalanilgan;
-binoni LED lampalar asosan yoritish uchun ishlatiladi;
-harakatni sezuvchi dachiklar o`rnatilishi ko`zda tutilgan.
Binoning tom qismiga quyosh panellari o’rnatilishi loyihada ko`zda tutilgan.

3.7. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulaylik yaratish.

Ishchi loyihada ShNQ 2.07.02-24 “Qurilish obyektlarini nogironligi bo‘lgan va hayot faoliyati cheklangan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish” shaharsozlik normalari va qoidalariga asosan shart-sharoitlar ko‘zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Bino barcha muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: isitish, shamollatish, elektr ta’minoti, aloqa va signalizatsiya, videokuzatuv, suv ta’minoti va oqova suv, xavfsizlik va yong‘in signalizatsiyasi va boshqa tizimlar, shaharning muhandislik tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq loyihalanadi (ART kelishuvi va loyihalashtirish topshirig‘iga muvofiq).

Eslatma: Buyurtmachi tashkiloti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-son qarori talablariga rioya qilinsin. Obyekt bo‘yicha muhandislik tarmoqlariga ulanish va ulardan foydalanish bo‘yicha tegishli manfaatdor xizmat

ko‘rsatuvchi tashkilotlar bilan loyiha kelishilsin.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Surxondaryo viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2025-yil 27-noyabrdagi 230362129-sonli xulosasi.

5.2. Davlat ekologik ekspertizasi markazi Surxondaryo viloyati filialining 2025-yil 31-oktabrdagi 01-02/10-3938-sonli xulosasi.

5.3. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi M.T. O‘rozboyev nomidagi mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutining 2026-yil 27-apreldagi 522-3-sonli xatiga asosan taqdim etilgan 1-sonli xulosasi.

5.4. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Surxondaryo hududiy filialining 2026-yil 21-iyuldagi 39-35/5247-sonli xati.

5.5. “O`zenergoinspeksiya” Surxondaryo viloyat hududiy boshqarmasining 2026-yil 22-iyuldagi 18-2-19/853-sonli xulosasi.

5.6. Loyiha quyidagi tashkilotlar bilan kelishilgan:

-Uztelekom AK;

-Termiz SHET;

-Termiz shahar gaz ta`minoti;

-Surxondaryo suv ta`minoti” AJ;

-Buyurtmachi bilan kelishilgan, buyurtmachining taklif va e`tirozlari mavjud emas.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **116 786 581 432** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **1 790 584 806** so'mga kamaytirilib,

114 995 996 626 so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **93 195 670 696** so'm

Asbob-uskunalar: **9 479 326 291** so'm

QQS: **12 320 999 639** so'm

6.1. Ishchi hujjat ekspertiza ko‘rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish energotejamkorlik va boshqa yechimlari bo‘yicha e‘tirozlarisiz taqdim etilgan.

6.2. Eksperiza jarayonida oraliq (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi:

-Buyurtmachi tomonidan Bosh loyiha tashkilotinning oraliq ekspert xulosasiga javob xatlari taqdim qilindi;

-“Gold Malika Print” MChJning 2026-yil 19-avgustdagi 26-sonli xati.

6.3. Buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.4. Buyurtmachi, loyiha va pudrat tashkilotlari, foydalanuvchi bilan birgalikda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-son, 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son hamda 2022-yil 20-apreldagi 200-son qarorlar talablariga amal qilinsin.

6.5. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarorning 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishini ta’minlaydi.

6.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energitika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga choratadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4779-son qarori doir qo‘shimcha va QMQ 2.01.04-18 “Qurilish issiqlik texnikasi” talablariga to‘liq rioya qilinsin va energiya tejamkor materiallardan foydalanilsin.

6.7. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o’rnatilgan tartibda ishchi loyiha hujjatlarini

mazkur xulosada ekspertiza tomonidan berilgan sharhlar bo’yicha to’g’irlab taqdim etish talabi qo’yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha hujjatlari buyurtmachiga to’liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy hisoblanmaydi.

6.8. Qurilishning yakuniy qiymati buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish oxirida, nazorat o‘lchovlari natijalariga ko‘ra belgilanadi.

6.9. Buyurtmachi, loyiha muallifi va pudrat tashkilotlari Mehnat va texnika xavfsizlik qoidalariga hamda yong‘in xavfsizligiga rioya qilinsin.

6.10. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-son qaror Nizomining III-bob, 29-bandiga asosan ekspertiza tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda “Termiz shahar Tuproqqo‘rg‘on mahallasida 16 qavatli, 1-qavati savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish nuqtalari bo‘lgan turar-joy binosini qurish” obyektining ishchi loyiha-smeta hujjatlari kelgusida ko`rib chiqish hamda kelishish uchun tavsiya etiladi.

Ishtirokchi ekspertlar: Axmedov Rustambek Xamidovich, Olxovskaya Viktoriya Kamilovna, Ikromov Muxiddin Sodiqovich, Jabborova Dilnoza Ollayorovna, Kurpelyanskaya Irina Borisovna, Musayev Rustam Talatovich, Suleymanova Umida Ravilevna, Turayev Shoxrux Ilxomovich

Bosh ekspert **ASATILLAYEV SARDOR ASATILLA O‘G‘LI**